

MUSTAQILLIK YILLARIDA MILLATLARARO VA DINLARARO TOTUVLIKNI TA'MINLASHDA O'ZBEKISTON TAJRIBASI

Eshboyeva Dinora,

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi,

Islomshunoslik yo'nalishi, 2-bosqich talabasi

dinoraeshboyeva23@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonning mustaqillik arafasida va mustaqil bo'lgandan so'ng millatlararo va dinlararo totuvlikni ta'minlash yo'lida olib borgan siyosati aks ettirilgan. Ushbu sohada qabul qilingan qonunlar va ushbu qonunlarning qabul qilinishi taqozo etgan vaziyatlar yoritilib berilgan. Shuningdek, mustaqillik yillarida millatlararo va dinlararo totuvlikni ta'minlash va turli millat va din vakillari orasida bag'rikenglik va do'stlik aloqalarini rivojlantirish maqsadi amalga oshirilgan ijobiy tadbirlar aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni, millarlararo va dinlararo totuvlik, xalqaro shartnomalar, bag'rikenglik.

Ma'lumki, mustaqil bo'lganimizdan so'ng barcha sohalarda tub yangiliklar amalga oshirildi. Jumladan, bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lgan millatlararo va dinlararo siyosatida ham ko'plab islohotlar amalga oshirildi. O'zbekiston mustaqillikka erishish arafasida ko'plab sohalar qatorida din sohasiga ham alohida ahamiyat berdi. Mustaqillik e'lon qilinmasidan oldinoq, 1991-yil 14-iyunda "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni¹ qabul qilindi. Shu jihatdan ham ko'rishimiz mumkin-ki, mustaqillikka erishish yillarida va mustaqillik yillarida din sohasi davlat uchun ahamiyatli bo'lgan. Bunga,

¹ <https://lex.uz/acts/-65108>
www.pedaqoqlar.uz

albatta, bir qancha omillar sabab bo'lgan. Jumladan, xalqimizga SSSR davrida “Din afyundir” shiori ostida uzoq yillar yashagan va ular bunday holatga uzoq chiday olishmasdi. Chunki har bir insonning ruhiyatida dinga bo'lgan samimiy munosabat bor va bu munosabatdan terroristik va ekstremistik tashkilotlar mustaqillik arafasida turgan davlatni zaiflashtirish uchun foydalanish ehtimoli katta bo'lgan. Bundan tashqari, mustaqillik arafasida O'zbekistonda 130 dan ortiq millat va elatlar istiqomat qilib kelayotgan bo'lib, ularning har birini o'z e'tiqodi bor edi. Shunday sharoitda yuqoridagi qonun qabul qilindi. “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining qonuni sharoit taqozasidan 1993-yil va 1998-yil 1-may² kuni qaytadan tahrir qilindi va unga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi. Ammo g'araz niyatlarni ko'zlovchi tashkilotlar o'z yovuz maqsadlarini zimdan amalga oshirishga kirishdi va aholining tinchligiga xavf soldi. Bular 1999-yil 16-fevral Toshkent shahrida, 1999-2001 yillar Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida, 2004-yilning mart-aprel oylarida Toshkent shahri va Buxoro viloyati, 2004-yil iyul oyida Toshkent shahrida³ amalga oshirilgan terrorchilik harakatida va 2005-yil “Andijon voqealari”da o'z aksini ko'rsatdi. Dinlararo totuvlikni ta'minlash maqsadida O'zbekiston 10 dan ortiq vijdon erkinligiga oid xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilgan. Quyidagilar shular jumlasidandir:

1. “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” 1948-yil 10-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi Rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan⁴. O'zbekiston Respublikasi 1991-yilning 30-sentyabrida ratifikatsiya qilgan.

2. “Genosid jinoyatining oldini olish va uning uchun jazolash to'g'risida” konvensiya BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yil 9-dekabrda qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi 1999-yil 28-avgustda ratifikatsiya qilgan.

² <https://lex.uz/acts/-65108>

³ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Toshkent islom universiteti. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. – T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2005. – B. 123.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Toshkent islom universiteti Islomshunoslik ilmiy-tadqiqot markazi. Vijdon erkinligining huquqiy kafolatlari (o'quv qo'llanma)– T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013. – B. 15.

3. “Din va e’tiqodlar negizidagi murosasizlik va kamsitishlarning barcha shakllarini bartaraf etish to’g’risidagi Deklaratsiya” BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1981-yil 25-noyabrda qabul qilingan⁵. O‘zbekiston Respublikasi 1997-yil 30-avgustda ratifikatsiya qilgan va unda belgilangan majburiyatlarni o‘z zimmasiga olgan.

4. “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to’g’risida” xalqaro Pakt 1966-yil 16-dekabrda BMTning Bosh Assambleyasi Rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan⁶. O‘zbekiston Respublikasi 1995-yil 31-avgustda ratifikatsiya qilgan.

5. “Ta’lim sohasida kamsitish bilan kurash to’g’risida”gi Konvensiya 1960-yil 14-dekabrda YUNESKOning Bosh Konferensiyasida qabul qilingan. - O‘zbekiston Respublikasi 1997-yil 30-avgustda ratifikatsiya qilgan.

6. “Bola huquqlari to’g’risida”gi Konvensiya BMT Bosh Assambleyasi Rezolyutsiyasi tomonidan 1989-yil 20-noyabrda qabul qilingan. O‘zbekiston Respublikasi 1992-yil 9-dekabrda ratifikatsiya qilgan.

Ushbu xalqaro hujjatlarda vijdon erkinligi va diniy bag’rikenligiga oid qonunlar o‘z aksini topgan. Ma’lumki, milliy qonunlar xalqaro qonunlar asosida tuziladi va ushbu davlatdagi aholining tinchligi va totuvligini saqlashga xizmat qiladi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach millatlararo va dinlararo totuvlikni ta’minlashda diniy bag’rikenglikka ham katta e’tibor berdi. Ushbu soha O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida o‘z aksini topgan: “O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an’analarini hurmat qilinishini ta’minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi”⁷. Shuningdek, 1995-yil YUNESKO tomonidan Parijda “Bag’rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi” qabul qilinadi. BMT har yili 16-noyabrni

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Toshkent islom universiteti Islomshunoslik ilmiy-tadqiqot markazi. Vijdon erkinligining huquqiy kafolatlari (o‘quv qo‘llanma)– T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013. – B. 18.

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Toshkent islom universiteti Islomshunoslik ilmiy-tadqiqot markazi. Vijdon erkinligining huquqiy kafolatlari (o‘quv qo‘llanma)– T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013. – B. 15.

⁷ <https://lex.uz/docs/-20596>

“Xalqaro bag‘rikenglik kuni” deb e’lon qildi. Ushbu sana nafaqat O‘zbekistonda, balki butun dunyoda keng nishonlanib kelmoqda. Diniy bag‘rikenglik g‘oyasining amaldagi tasdig‘ini 1995-yilda musulmon va xristian ilohiyotchilari ishtirokida “Bir samo ostida” mavzuidagi xalqaro xristian-musulmon Konferensiyasi, shuningdek, Rus pravoslav cherkovi Toshkent va O‘rta Osiyo eparxiyasining 125-yilligi hamda Evangel - Lyuteran jamoasining 100-yilligi nishonlanganligida, hamda 1998 yildan Toshkent Pravoslav diniy seminariyasi, Samarqand Protestant seminariyalari faoliyat ko‘rsatib kelayotganligida ko‘rishimiz mumkin⁸. Millatlararo va dinlararo totuvlik sohasida O‘zbekistonning mustaqillik yillarida amalga oshirgan yana bir muhim siyosati, shundan iboratki, asosiy qonunimiz bo‘lgan Konstitutsiyada ushbu soha o‘z aksini topganligidir. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4, 18, 31, 57 va 61 moddalari dinlararo totuvlik va aholining tinchligini saqlashga asoslangan. Konstitutsiyamizning 31-moddasida shunday deyiladi: “Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi”⁹. Bag‘rikenglik 130 dan ortiq millat va ellat vakillari yashaydigan O‘zbekiston uchun juda muhimdir. Chunki mustaqillikka erishishimizdan avval 1989-yil may-iyun oylarida bo‘lib o‘tgan “Farg‘ona voqealari”da millatchilik tufayli 103 kishi halok bo‘ldi, 1011 kishi jarohatlandi va 757 xonadonga o‘t qo‘yilib, vayron etildi. Ushbu voqeadan to‘g‘ri va oqilona xulosa chiqargan mustaqil O‘zbekiston Respublikasi bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik siyosatini olib bormoqda. Shunindek, Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug‘aniyevich Karimov ta’kidlaganlaridek: “...har bir vatandoshimiz, ayniqsa, yoshlar faqat islom dini to‘g‘risida emas, umuman dunyodagi mavjud dinlar, ularning tarixi, mohiyati to‘g‘risida to‘liq tasavvurga ega bo‘lsin. Ijtimoiy sohaga oid darslarda yoshlarga din bilan dunyoviy hayot masalalarini, bu ikki

⁸ M.Lafasov, X.S.Jumaniyozov, G.K.Masharipova, E.Xoliqov, E.M.Mallaeva. Diniy ekstremizm, missionerlik va xalqaro terrorizmga qarshi kurash (metodik qo‘llanma) – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. -B. 24.

⁹ <https://lex.uz/docs/-20596>

tushunchaning bir-biriga ta'sirini, ular o'rtasidagi mo'tadil munosabat bo'lishi zarurligini ochib berish kerak"¹⁰. Albatta, har bir inson o'z dinidan tashqari boshqa dinlarni ham o'rganishi va ularga nisbatan tolerant bo'lishi darkor. Chunki hamma din ham insonlarni mehr-muhabbatli bo'lishga, tinch va osoyishta hayot kechirishga, sabr-toqatli bo'lishga undab, yovuzlik va razillikdan uzoqlashish, zulm va adolatsizlikka qarshi kurashishga undaydi. O'zbekiston hududida ko'plab dinlar tarqalgan bo'lib, bular qatoriga islom, katolik, provaslav, buddaviylik, yahudiylik kabi dinlarni kiritish mumkin. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida 16 diniy konfessiyaga mansub 2 239 diniy tashkilot faoliyat olib bormoqda. Ulardan 2065 tasi islomiy, 157 tasi xristian, 8 tasi yahudiy, 6 tasi bahoii jamoalari, bittadan Krishnani anglash jamiyati va Budda ibodatxonasi. Bulardan tashqari konfessiyalararo Bibliya jamiyati ham faoliyat yuritmoqda. O'zbekiston o'zining istiqloq yillaridan to bugungi kungacha bo'lgan davrda o'ziga xos tarixni boshdan kechirdi. Bu yillar davomida xatolardan to'g'ri xulosa chiqarib, qo'shni davlatlar tajribasini o'rganib o'z mustaqilligini, aholi orasida millatlararo va dinlararo tinchlik va totuvlikni ta'minlab kelmoqda. Shuningdek, o'zga millat va din vakillarining huquqlari qonun hujjatlarida aks etgan bo'lib, bu amalda o'z ifodasini topmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Toshkent islom universiteti. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. – T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2005.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Toshkent islom universiteti Islomshunoslik ilmiy-tadqiqot markazi. Vijdon erkinligining huquqiy kafolatlari (o'quv qo'llanma)– T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013.
3. M.Lafasov, X.S.Jumaniyozov, G.K.Masharipova, E.Xoliqov, E.M.Mallaeva. Diniy ekstremizm, missionerlik va xalqaro terrorizmga qarshi kurash (metodik

¹⁰ Karimov I. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 8-jild. –T.: O'zbekiston, 2000. – B. 504.

qo'llanma) – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.

4. Karimov I. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 8-jild. –T.: O'zbekiston, 2000.

5. <https://lex.uz/acts/-65108>

6. <https://lex.uz/docs/-20596>

7. <https://religions.uz/uz/news/detail?id=296>

8. https://uz.wikipedia.org/wiki/Genotsid_konvensiyasi